INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLARNI KASB TANLASHGA YONALTIRISHNING UZVIYLIGINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYASI

Kurbanova Gullola Baxramovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
gullolakurbanova077@gmail.com
Omonova Parizod Uchqun qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Omonovaparizod06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisning mazmuni shundan iboratki**,** kasb tanlash shunday qaltis jarayonki, u insonni bir umrga baxtsiz yoki baxtli kilishi, barcha rejalarining barbod bo'lishi yoki amalga oshishiga asosiy sababchi bo'lishi mumkin. Baxtsizlik va omadsizlikni xoxlamagan inson o'z tanloviga shubha qilmagan xoldagina har tomonlama mulohaza yuritib, qaror qabul kilishi lozim.

Kalit so'zlar: kasb, shaxs, sifat, sharoit, tashxis**,** tanlov, ko'nikma, jamiyat

Annotation: Choosing a profession is such a volatile process that it can make a person unhappy or happy for a lifetime, and can be the main reason for the failure or fulfillment of all plans. A person who does not want unhappiness and bad luck should make a decision after considering all aspects only when he does not doubt his choice.

Keywords*:* profession, personality, quality, condition, diagnosis, choice, skill, society

Insoniyat tarakkiyotining dastlabki davrlaridan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash masalasi jamiyatning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Shaxs sifatlarini o'rganish asosida uni ishlab chikarish, harbiy yoki aqliy mehnat sohasiga to'gri yo'naltirish, yosh avlodda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamisha davlat va jamiyat mavjudligi hamda taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblangan. [1, 5 b.]

Kasb tanlash shunday qaltis jarayonki, u insonni bir umrga baxtsiz yoki baxtli kilishi, barcha rejalarining barbod bo'lishi yoki amalga oshishiga asosiy sababchi bo'lishi mumkin. Baxtsizlik va omadsizlikni xoxlamagan inson o'z tanloviga shubha qilmagan xoldagina har tomonlama mulohaza yuritib, qaror qabul kilishi lozim. Insonni kasb tanlashga yo'llovchi asosiy omillar – bu jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish istagi va shaxs sifatida komillikka erishishdan iborat. Shaxsning kasb tanlashi faqatgina uning xoxishi va qobiliyatiga bog'liq bo'lmay, balki u yashaydigan jamiyatdagi erishilgan moddiy va ma'naviy sharoit, yutuqlar bilan ham belgilanadi. [3, 87 b.]

Biz har doim ham o‘z iste’dodimizga muvofik keladigan kasbni tanlay olmaymiz, ba’zan jamiyatdagi munosabatlarimiz bizga bog‘lik bo‘lmagan holda shunday shakllanib boradiki, natijada biror bir ta’sir ko‘rsatishga ojiz bo‘lib qolamiz. X asrda yashab ijod etgan ulug‘ bobo kalonomiz Abunasr Al Forobiy (870-950) ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb–hunar egalashga chaqiradi. Forobiyning fikricha inson–ojiz banda hech narsaga qodir bo‘lmagan mavjudot emas, balki u eng oliy kamolot bo‘lib “Aql-idrok ziyosiga ega, o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir”. Forobiy mehnat va kasb–hunar ko‘nikmalarini axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta’kidlab: “Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podsholar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podsholik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiyat bo‘lib qolar edi.” Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmasligini bayon qilingan. [4, 37 b.]

Kasb-hunar egallash ahamiyati to‘g‘risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning asarlarida ham ko‘ramiz. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunar o‘rgatish lozim. Bola kasb-hunar ma’lum darajada o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng o‘z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, ya’ni mahnat bilan mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish kerak. “Yoshlarga ilm berish bilan birga hunar o‘rgatmoq muhim ma’suliyatli ishdir ” deb ta’kidlagan edi

Insoniyat jamiyatining rivojlanish ehtiyoji tufayli kasb-hunarga yo‘llash va uni tanlash zarurati paydo bo‘ldi. Kasblar paydo bo‘lmasa, kasbga yo‘llashning o‘ziga ham extiyoj tug‘ilmas edi. Demak kasblarning paydo bo‘lishi bilan bir qatorda kasb-hunarga yo‘llash ham paydo bo‘ldi, deb aytish mumkin. Kasb-hunarga yo‘llashning ham insoniyat jamiyati singari o‘z tarixi mavjud. Bir necha asrlar ilgariyoq insonning kasb-hunarga yaroqliligini baholashga oid ba’zi fikr va g‘oyalar vujudga kela boshladi. Ular asosan, bilim, mahorat va qobiliyatni tashxis qilishga qaratilgan edi.

Qadim davrlardan sharq davlatlarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, tanlash va saralash bilan bog‘liq boy tajribalar to‘plangan.Miloddan avvalgi uchinchi ming yillik o‘rtalarida qadimgi Vavilionda maktabni bitirib chiquvchidarni xattotlik kasbi bo‘yicha sinovlardan o‘tkazilgan. O‘sha davr tsivilizatsiyasi uchun xattotlar asosiy shaxslardan biri xisoblangan. U erda o‘lchash, mol-mulk bo‘lish, ashula aytish, musiqa asboblarida kuy chala olish kabi faoliyat turlari bo‘yicha sinov davri edi. Sinov davrida xattotning metall, usimlikni farklay olishi, shuningdek, to‘rt arifmetik amalni bajara olishi aniklab ko‘rilgan.

Qadimgi Yunon faylasufi Pifagorning ham boshidan kechirganlari haqida ma’lumotlar bor. Pifagor Gretsiyaga qaytib kelganidan so‘ng o‘z maktabini barpo etgan. Bu maktabga o‘zi boshidan o‘tkazgani singari sinovlarga bardosh bera olgan kishilarnigina qabul qilgan. Pifagor shaxsdagi aqliy qobiliyatga va uni tashxis qilishga aloxida e’tibor qaratgan. Bundan tashqari o‘quvchilarning kulishi va yurishiga ham diqqat bidan e’tibor berib, kulgu inson tavsifining ahamiyatli ko‘rsatkichlaridan hisoblanishini ta’kidlagan. U ota-onalar va o‘qituvchilar tavsiyalariga diqqat bilan munosabatda bo‘lib, har bir yangi o‘quvchini sinchiklab kuzatgan. Shundan so‘nggina o‘quvchini suxbatga taklif etgan. [5, 102 b.]

Qadimgi Sparta va Afinada xarbiy kasblarga yo‘naltirishda afinaliklar yoshlarda jismoniy kuch, chaqqonlik, topqirlikni, spartaliklar esa chidamlilik, qat’iyatlilik, jismoniy kuchni rivojlantirish masalalariga ko‘proq e’tibor qaratganlar. Safdagi barqarorlik va harbiy shon-sharafni saqlash, zehnlilik sifatlari ham yuqori baholangan.

Qadimgi Rimda esa xarbiy xizmatga faqat yoshlar olinib, ularni jiddiy va murakkab mashg‘ulotlar asosida jismonan rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilgan. Qurol-yarog‘ bilan harakat qilishdan tashqari yugurish, qoyaga chiqish, kurash, suzish kabi bir qator mashg‘ulotlar avval kiyimsiz holda, keyinchalik esa kiyim-bosh va to‘la turli anjomlar bilan o‘tkazilgan.

Kasbga yo‘naltirish tizimi tarkibiga kasbiy tashxis va kasb tanlashning kiritilishini e’tiborga olgan holda aytish mumkinki, kasb-hunarga yo‘llash ishlari qadim zamonlardayoq paydo bo‘lgan. Lekin unga ijtimoiy jarayon sifatida qarab, yuqorida zikr etilganidek, kasbiy tashxis va kasb-hunar tanlashdan tashkari kasbiy ma’rifat, maslaxat, ijtimoiy moslashuv va tarbiya kabi omillarni kasb-hunarga yo‘llash tarkibiga kiritilsa, kasb-hunar tanlashning insonga xos ilmiy asoslangan

faoliyat turi ekanligi, alohida fanlarning integratsiyasi natijasida, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarning keyinroq vujudga kelganligi ma’lum bo‘ladi.

Jahon ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni jadalashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’limni axborotlashtirish jarayoni, shuhbasiz, vatanimiz kelajagini ta’minlovchi yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kasbiy faoliyati jarayonida foydalanish kompetentligiga uzviy bog‘liqdir. [6, 89 b.]

Pedagogikada o‘qitishning didaktik printsiplari kontseptsiyasini hozirgi kunda taniqli sinf-dars tizimini yaratuvchisi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) kiritgan. Vaqt o‘tishi bilan ushbu atamaning mazmuni o‘zgardi va hozirgi vaqtda didaktik printsiplar deganda ta’lim jarayoni maksimal samaradorlik bilan amalga oshiriladigan tarzda ta’lim jarayonini tashkil etadigan g‘oyalar, usullar va naqshlar tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-semtabrdagi "Ta'lim to‘g‘risida" gi O‘RQ-637-sonli qonuni.

2. Umumiy o‘rta ta'limning Texnologiya fani boyicha milliy o‘quv dasturi asosi (tarkibi)da ko‘rsatilgan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida texnologiya fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.80 b

3. AvazbaevA.I., Ismadiyarov Y.I., Isyanov.R.G. Kasb-hunarga yo‘naltirish. –Toshkent: "Firdavs-Shox" nashriyoti, 2021 y. 212 b.

4. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qollanma. –T.: Iqtisod moliy. 2001 yil, 207 b.

5. Muslimov N.A. Kasb tanlashga yo‘llash. Darslik. -T.: O‘zbekiston, 2014, 449 b.

6. Muslimov N.A, Sharipov.Sh.S va boshqalar. Mehnat ta'limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2009, 427 b.

7. Qurbonov B., Isyanov R.G., Kurbanova G.B., Avazbaev A.I., Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. Darslik. -Toshkent: "Ziyo", 2022. - 256 b.

8. Qurbonov B., Muhliboyev M., Kurbanova G. Mehnat ta'limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Guliston, 2013 y.